



Alimjanova Dilbar Magribjanovna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i
e-mail: dilbara1962@mail.ru



Ilxamova Zumrad Vaxidovna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodim
e-mail: zumrad.i@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA NAMUNALI OILA PORTRETI (TADQIQOT NATIJALARI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari bo‘yicha aholining zamonaviy-namunali oila modelini shakllantirishda respondentlarning fikrlari o‘rganildi va namunali oila portreti shakllantirildi.

Tayanch so‘zlar: namunali oila, ota-ona, birdamlik, muhabbat, oqibat, farovonlik, salomatlik, tarbiya, moddiy holat, yashash sharoiti.

Аннотация. В данной статье исследуются взгляды респондентов на результаты социологического опроса, проведенного среди населения в части формирования современной модельной семейной модели населения и формирования модельного семейного портрета.

Ключевые слова: образцовая семья, родители, солидарность, любовь, последствия, благополучие, здоровье, воспитание, материальное положение, условия жизни.

Annotation. This article examines the views of respondents on the results of a sociological survey conducted among the population in the formation of a modern family model of the population and the formation of an exemplary family portrait.

Keywords: exemplary family, parents, solidarity, love, consequences, well-being, health, upbringing, financial situation, living conditions.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan davlat dasturlari sog‘lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, jismonan sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan.

Oilani mehr-muhabbat va birdamlik, barcha oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan hurmati, o‘zaro ijobiy munosabatlar, farzandlarga bo‘lgan g‘amxo‘rlik va tarbiya, mas‘uliyat va burchni anglash birlashtiradi hamda oila farovonligini ta‘minlaydi.

Insonning axloqiy fazilatlarini va madaniy qarashlariga oilada asos solinadi, bu esa kelajakda uning xulq-atvor normalarini shakllantiradi va ichki dunyosini boyitadi. Oila insonning ijtimoiy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi, ya‘ni har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiradi.

Oila institutining barqarorligi butun mamlakat taraqqiyoti va muvaffaqiyatining garovidir.


Maqsad va uni asoslash. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti 2021-yilning sentabr-oktabr oylarida zamonaviy namunali oila modelini shakllantirish maqsadida “O‘zbekistonning zamonaviy namunali oila modeli” mavzusida sotsiologik so‘rov o‘tkazdi.

Tadqiqot 2021-yilning sentabr-oktabr oylarida respublikaning 6 ta hududida o'tkazildi. Tadqiqotda 1400 ga yaqin oila ishtirok etdi, ularning 42,2 foizi shaharlarda va 57,8 foizi qishloqlarda yashaydi.

Respondentlarning 70,1 foizini ayollar va 29,9 foizini erkaklar tashkil etdi. Respondentlarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: 16,6 foizi – o'rta ma'lumotli, 37,0 foizi – o'rta-maxsus va 45,2 foizi – oliy ma'lumotga ega.


So'rov natijalari "Namunali oila" portretini tuzishga imkon berdi. Namunali deb, ko'proq, er-xotin o'zini qonuniy nikohda (85%), oilada bir nechta farzandi bor (90%), katta oilada (buvi, buvalar, farzandlar, nabiralar bilan) yashaydigan (30%), sog'lom turmush tarzini olib boradigan (83%), oliy ma'lumotga ega (48%), ishlaydigan (89%), moliyaviy jihatdan ta'minlangan (54%), yaxshi va o'rtahol, o'z uy-joyiga ega (70%) respondentlar ijobiy javob berdilar.

Tadqiqot natijalari va olingan javoblarning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'rovda ishtirok etgan oilalarning 81 foizi o'z oilasini to'liq namunali, 18 foizi qisman namunali oila deb hisoblaydi. Oilalarning 1 foizi esa o'zlarini namunali sifatida ko'rmaydi.




1-diagramma

Bir necha avlodlarning birga, katta oila bo'lib yashash an'analari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu savolga olingan javobni demografik ko'rsatkichlar (ma'lumoti, farzandlar soni, farovonlik darajasi va yashash sharoiti) bo'yicha tahlil qildik va quyidagilar aniqlandi:



2-diagramma


So'rov natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, farzandlari bilan yashaydigan 70 foiz er-xotin o'z oilasini namunali deb hisoblaydi, 15 foiz ota-onasi bilan va yana 15 foizi buva-buvilari bilan birga yashaydigan oilalar o'z oilasini namunali deb hisoblaydi.



3-diagramma


Farzandlar soni bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, 42 foizi – 1-2 farzandli oilalar, 31 foizi – 3 nafar farzandli oilalar, 16 foizi – 4 va undan ko'p farzandli oilalar va 10 foizi – farzandsiz oilalar o'z oilasini namunali deb hisoblaydi.

Oila hayotiga ta'sir qiluvchi va unda ijobiy munosabatlar yaratuvchi omillarga er-xotinning ta'lim darajasi, ularning madaniyat darajasi, urf-odat va an'analarga rioya qilishi, moddiy holati, yashash sharoiti, ijtimoiy mavqeyi va axloqiy e'tiqodi kiradi.



4-diagramma

Respondentlarning javoblaridan kelib chiqib, ma'lumoti bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 49 foizi oliy ma'lumotli, 35 foizi o'rta-maxsus ma'lumotli, 16 foiz o'rta ma'lumotlilar o'z oilasini namunali deb hisoblaydi.



5-diagramma

Respondentlarning javoblariga ko'ra, farovonlik darajasi bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 54 foizi o'rta farovonlik darajasidagi oilalar, 45 foizi yuqori farovonlik darajasidagi oilalar va 1 foizi esa kam ta'minlangan oilalar o'z oilasini namunali deb hisoblaydi.

Oilaviy hayotning xulq-atvor modellari va me'yorlari diniy va axloqiy g'oyalarga asoslanib, u jamiyat (davlat) va oila tomonidan o'rnatiladi. Oila qoidalari va me'yorlarining yo'qligi oila a'zolari va butun jamiyat uchun oilaviy ajrimlar, nosog'lom oilalar sonining ko'payishi ijtimoiy yetimlik shaklida jiddiy xavf tug'diradi.

"Siz qaysidir shaxs yoki oilaga havas qilib, uni o'zingizga ideal qilib yashagansiz?", degan savolga respondentlarning 88 foizi "Namunali oilalarga havas qilib yashaganmiz", deb javob berdi.

Namunali oilalar o'zlari uchun kimni ideal deb biladi?, degan savolga ularning aksariyati "ota-onam

yoki yaqin qarindoshlarim" deya javob berdi (67%). Bundan tashqari, ularning o'zaro munosabatlari va turmush tarziga murabbiylar va o'qituvchilar (12%), davlat arboblari (6%), olimlar (5%), do'stlar (4%), diniy arboblari (3%) ta'sir ko'rsatadi.

Namunali oilalarda oilaning moddiy ta'minoti erkaklar tomonidan amalga oshiriladi (bu namunali oilalarning 83 %i tomonidan ko'rsatilgan), ularga ayollar (47%), ota-onalar (23%) va to'ng'ich farzandlari (22%) yordam beradi. Oila budjeti, asosan, erkak (77%) tomonidan boshqariladi, ularga ayollari (82%), farzandlari (42 %) hamda ota-onalari (12 %) yordam beradi. Bolalarni tarbiyalash, asosan, ayollar (71 %) zimmasida, erlar (59 %) va ota-onalar (48 %) ularga yordam berishadi. Namunali oilalarning 90 %i o'z turmush sharoitidan mamnun.

O'tkazilgan so'rov ma'lumotlaridan foydalanib, namunali oilalarning tadbirkorlik, ko'p farzandlilik, ishsizlik, kambag'allik, mehnat migratsiyasi, shar'iy nikoh, ajrashish kabi mavzular bilan o'zaro korrelyatsiyasi o'rganildi. Namunali oilalar soni bilan bir qatorda, tadbirkorlik va ko'p farzandlilik kuchli ijobiy ta'sirga ega, chunki korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,7 dan yuqori. Kambag'allik va nosog'lom oilalar soni esa o'ta kuchli salbiy ta'sirga ega, ya'ni kambag'allik va nosog'lom oilalarning ko'payishi namunali oilalar sonini kamaytiradi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Shunday qilib, so'rov natijalari xorijiy tajribani o'rganish orqali aniqlangan namunali oila mezonlarini tasdiqlash imkonini berdi. Namunali oilani shakllantirishda unda ijobiy munosabatlar, kattalarga hurmat va ota-onalar bilan birgalikda yashash, oilada bir necha farzandning borligi va ularning tarixiy-madaniy va oilaviy qadriyatlar, shuningdek, Islom dini me'yorlari asosida tarbiyalangani kabi ma'naviy-axloqiy mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

– moddiy mezonlar – ish va barqaror daromad, yaxshi uy-joy sharoitlari, hayotdan mamnunlik, muhtojlarga yordam va xayriya faoliyatini amalga oshirish;

– ijtimoiy mezonlar – nikoh barqarorligi (ro'yxatga olish idorasida ro'yxatdan o'tgan nikohda yashash), oliy ma'lumot olish, o'z sog'lig'ini qadrlash va sog'lom turmush tarzini saqlab qolish istagi.

Ushbu mezonlarga mos keladigan oilalar sonining ko'payishi jamiyatda ajrimlar, jinoyatchilik,

norasmiy nikohlar va noqonuniy bolalar tugʻilishi, qashshoqlik va baxtsizlik kabi salbiy oqibatlariga yetaklovchi hodisalarni kamaytiradi.

Yuqoridagi omillarning barchasi oilani birlashtirish va mustahkamlash istagini, ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishni, shu bilan birga, oilaviy munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Oʻtkazilgan tadqiqot juda dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, tadqiqot metodologiyasi davlat qarorlarini

qabul qilishda va chuqur tahliliy faoliyatda keng foydalanish imkonini beradi.

Yakuniy qism. Mamlakatimizda oila institutini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqiqiy amaliy natijalar beryapti, milliy anʼanalar va maʼnaviy qadriyatlar saqlab qolinmoqda, keng qamrovli meʼyoriy-huquqiy hamda oila va nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antonov A. I. Mikrosotsiologiya semʼi (metodologiya issledovaniya struktur i protsessov) : uchebn. posobie dlya vuzov. – M.: Izdatelʼskiy Dom «Nota Bene», 1998.
2. Lyausheva S. A. Vliyanie modernizatsii obshestva na institut semʼi. Vestnik Adigeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 1: Regionovedenie: filosofiya, istoriya, sotsiologiya, yurisprudentsiya, politologiya, kulʼturologiya. – № 2. – 2010.
3. Klemantovich I.P., Soboleva M.K., Perlova I.V. «Vzaimodeystvie mejdu pokoleniyami v sovremennix usloviyax». Mejdunarodniy studencheskiy nauchniy vestnik. – 2018.
4. Arifxanova Z.X. Traditsionnie soobshestva v usloviyax nezavisimogo etnokulʼturnogo razvitiya. Sovremennie etnokulʼturnie protsessi v maxallyax Tashkenta. – T.: «Fan», 2005.
5. Ubaydullaeva R. Sotsiologicheskiy portret lichnosti aksakala. «Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari». - T., 2004.
6. Xidirov X. Mahalla – davlat tayanchi. // «Mahalla», 1998 yil 14 noyabrʼ.
7. Informatsionno - analiticheskiy doklad po rezulʼtatam oprosa obshestvennogo mneniya «Semʼya i obshestvo: duxovniy i nraivstvenniy mir». Ijtimoiy fikr - 2018 y.
8. «Oila va jamiyat: maʼnaviy va axloqiy olam» mavzusidagi jamoatchilik fikri soʻrovi natijalari. Ijtimoiy fikr - 2019 y.